

## FRAZEOLOGIZMNING TILDAGI AHAMIYATI

Qo‘ziyeva Maqsuda Meyliqulovna

*Toshkent shahri Qibray tumani 26-maktabning ingliz tili fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada frazalarning ma‘no- mohiyati, frazeologizmning tildagi va og‘zaki uslubdagi ahamiyati hamda frazalarning ko‘p ma‘nolilik xususiyatlari bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Fraza, frazeologizm, og‘zaki nutq, mazmun va shakl, ko‘p ma‘nolilik.*

Har bir inson muloqot jarayonida nutqini tinglovchiga tushunarli va jozibador hamda ta’sirchan tarzda yetkazib berishni xohlaydi. Bu o‘rinda esa, maqol va matallarning, hikmatli so‘z va frazalarning o‘rni beqiyosdir. Sababi, bu birikmalar nutqimizga o‘zgacha zeb berib, ko‘rk bag‘ishlaydi. Ushbu birliklardan foydalanib so‘zlaydigan so‘zlovchi nutq jarayonida albatta, tinglovchini e’tiborini jalp qila oladi. Maqol va matallardan, frazalardan foydalanar ekanmiz, avvalo, ularni o‘z o‘rnida, kerakli paytda to‘g‘ri ishlata olishimiz lozim. Buning uchun esa, har birikmaning tag zamiridagi asl mazmun –mohiyatini anglab yetmoqlik joiz.

Aytish joizki, tilimizda bu birikmalarning o‘rni beqiyos. Shu o‘rinda, frazeologizmga alohida to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik. Frazeologizm uzoq yillardan buyon o‘rganilib kelinayotgan va bugungi kunda ham izlanuvchilarni izlanishga undovchi o‘ziga xos murakkab soha sanaladi. Frazeologizm asosan iboralar o‘rganilib, ibora fraza ham deb yuritiladi. Iboralar, ya’ni frazalar tilimizda yagona bo‘lgan turg‘un birikma hisoblanib, nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Frazalarning maqollardan farqi shundaki, maqollarda ko‘zda tutilgan ma‘no aynan nomi bilan keltirilsa, frazalarda esa, mazmun va shakl bir-biriga mutlaqo nomutanosib bo‘ladi. Ular doim ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Iboralar tarkibidagi har bir so‘z mustaqil ma‘nosini saqlamasdan, bo‘linmas bir semantik birlikni hosil qiluvchi turg‘un birikma sanaladi. Frazalar o‘ziga xos leksik grammatik, stilistik xususiyatlariga ega. Masalan frazalar ko‘p ma‘nolilik xususiyatiga ega. Bunga misol keltiradigan bo‘lsak, “O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati” da yo‘lga solmoq iborasining quyidagi ma‘nolari keltirib o‘tilgan: 1) ketish tomoniga to‘g‘rilab jo‘natmoq, yurgizmoq; 2) to‘g‘ri yo‘lga qaytarmoq; 3) manfaatdor bo‘lgani holda rag‘batlantirmoq; 4) faoliyatini yaxshilamoq.

Bel bog‘lamoq iborasini ham quyidagi ma‘nolari keltirib o‘tilgan: 1) shaylanmoq, otlanmoq; 2) astoydil kirishmoq; 3) ahd qilmoq.

Tilga kirmoq: 1) nutqqa ega bo‘lmoq; 2) ma‘lum fursat o‘tganidan keyin gapira boshlamoq; 3) o‘q uza boshlamoq. Frazalarning ko‘p ma‘nolilik xususiyati ularning sinonimik holati bilan bog‘liq. Frazalar alohida so‘z bilan sinonimik munosabat munosabat hosil etadi. Masalan, tepa sochi tikka bo‘ldi iborasi achchiqlandi, jahli chiqdi so‘lari bilan ko‘zi tor iborasi qizg‘anchiq so‘zi bilan sinonim hisoblanadi. Frazalarning stilistik tomoniga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular asosan, so‘zlashuv va badiiy uslubda ko‘proq qo‘llaniladi. Rasmiy, publitsistik uslublarda qisman aks etadi. So‘zlashuv uslubda iboralardan foydalanish, yuqorida ta’kidlanganidek, nutq ta’sirchanligini oshirsa, badiiy uslubda qo‘llanuvchi iboralar asarga sayqal berib, yanada jozibador etadi. rasmiy va publitsistik uslublarda, asosan, qo‘l qo‘ymoq, ovoz bermoq, o‘rtaga tashlamoq, qo‘l ko‘tarmoq, fikri bir yerdan chiqmoq kabi iboralar ko‘p ishlatiladi. Frazalarning yana bir muhim xususiyati shundaki, ular obrazlilik xususiyatiga ega. Bitta sinonimik uyani tashkil etgan iboralar aynan obrazlilik darajasi bilan farqlanadi. Masalan,

boshiga yetmoq- boshini yemoq iboralari bir ma’noni anglatsada, obrazlilik darajasi bilan farqlanadi. Ikkinchi iborada birinchi iboraga qaraganda obrazlilik darajasi yuqoriroq bo‘lib, unda yo‘q qilmoq, halok qilmoq ma’nolari ustunlik qiladi.

Anglash mumkinki, bundan yuqorida ta’kidlangan shakl va mazmun nomutanosibliigi degan tushuncha yana bir bor ko‘zga tashlanadi. Yana bir misol, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq iborasida tarvuz so‘zining ibora zamiridagi mazmunga umumman aloqasi yo‘q. Bunda o‘ylagan maqsadiga erisholmay xafsalasi pir bo‘ldi degan ma’no ilgari surilgan bo‘lib, tushuncha tarvuz misolida yoritib berilgan. Xullas, frazeologizm haqida so‘z yuritar ekanmiz, bu poyoni yo‘q rang –barang qatlam ekanligiga, jozibador olam ekanligiga amin bo‘lamiz. Shu bois ham, yozuvchilarimiz asarni kitobxonga tushunarli tilda bo‘lishi uchun hamda badiiy sayqal berish uchun ayniqsa, ulardan unumli foydalanadilar. Tilimizda frazalar mavjud ekan, bizni nutqimiz go‘zal, o‘qiydigan asarlarimiz esa, betakror bo‘lib boraveradi. O‘z o‘rnida qo‘llangan fraza esa, bu borada ayni muddaodir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. Yo‘ldoshev. “ hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari”. Toshkent 1993
2. M.Y. Vafoyeva. “O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning structural-semantik xususiyatlari” Toshkent 2009
3. Abdullayeva SH.D “Tarjima asarlarda frazeologizm semantikasi” Toshkent. 2006